

---

## BUYUK AJDODLARGA EHTIROM

Toshloq tumanida buyuk va mutafakkir shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy, shoh va shoir, olim Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludlari munosabati bilan ta'lim muassasalarida tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Fevral oyining avvalida ikki buyuk shoir va mutafakkir, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy, undan so'ng, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bobolarimizning tavallud ayyomlarining keng nishonlanishi, ularning bitmas tuganmas ma'naviy xazinalariga murojaat etishimiz ongu shuurimizga muhrlangan. Toshloq tumanidagi 8-umumta'lim maktabi hamda "Mahalla" xayriya jamoat fondi hamkorligida mutafakkir adib va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Unda Boburning yozgan asarlaridan namunalar o'quvchilarga o'qib eshittirildi va sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Tadbir yakunida faol ishtirok etgan adabiyotga qiziqqan o'quvchilarga esdalik sovg'alar topshirildi.

2023-02-14 16:54:33